



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ bo'limi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi sarrufidagi
_____ -maktabgacha tashkiloti
tayyorlov guruhi tarbiyachisi

_____ ning
takomillashgan "Ilk qadam"

ofatini asosida

"Bosh sportchilar"

usida tashkillangan

FAOLIYAT

ISHLANMASI

(Iyul oyining 2-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant dos. formatda beriladi.

Tayyorlov guruhlariga iyul oyi 2-hafta "Biz yosh sportchilarmiz" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG

Guruh: Tayyorlov guruhlar uchun

Oy mavzusi: Quvnoq yoz

Hafta mavzusi: Biz yosh sportchilar

Maqsadlar:

— bolalarda sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirish;
— oʻquvchilarda jismoniy tarbiya faoliyatlariga, sportga qiziqish uygʻotish;

— musobaqa shartlarini bajarish orqali oʻquvchi — oʻqituvchi — ota-onalar hamkorligini yoʻlga qoʻyish.

Vazifalar:

— bolalarni sport va jismoniy tarbiya bilan shugʻullanishga jalb qilish orqali sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish;

— oʻquvchilar salomatligini yaxshilash;

— bolalar va ota-onalarni jismoniy tarbiya mashqlarini muntazam bajarishga undash.



Tadbir oʻtkaziladi (sport zal yoki maktab sport maydoni) oldindan tayyorlanib qoʻyiladi. Sport va sogʻlom turmush tarzi aks ettirilgan suratli plakatlar, rangli sharlar bilan bezatiladi, shoʻx musiqa yangraydi.

Tarbiyachi: — Assalomu alaykum, qadrlı mehmonlar, ustozlar va aziz ota-onalar! Bugungi «Biz yosh sportchilar» deb nomlangan spartakiadamizga xush kelibsiz!

Musiqa sadolari ostida davraga Bilmasvoy va Doktor Voyjonim kirib keladi.

Tarbiyachi: — Assalomu alaykum! Bilmasvoy, sen ham spartakiadamizda ishtirok etish uchun keldingmi?

Bilmasvoy: — Yo‘q, aslida men o‘quv yili tugagani munosabati bilan chinakam bayram qilmoqchi edim. Kuni bilan televizorda namoyish etiladigan multfilmlarni tomosha qilib, o‘rtoqlarim bilan kompyuterda o‘yin o‘ynamoqchi edim. Ammo Doktor Voyjonim meni bu yerga boshlab keldi.

Doktor Voyjonim: — To‘g‘ri-da, men senga faol dam olish va haqiqiy bayram qanaqa bo‘lishini ko‘rsatmoqchiman. Ko‘p vaqt televizor yoki kompyuter qarshisida o‘tirish sog‘lig‘ing uchun qanchalik zararliligini nahot bilmasang?!



Tarbiyachi: — Xafa bo‘lma, Bilmasvoy, bugun sen ham bolajonlar bilan birgalikda sportkor muhitimiz doirasida o‘tkaziladigan musobaqalarda qatnashib, vaqtingni sportning inson salomatligi uchun foydasi kattaligi bilan o‘zlashtirib olasan, shu bilan birga yangi do‘stlar orttirib, vaqtini muvazim va maroqli o‘tkazasan.

Bilmasvoy: — Hech tushunmayman, qanday qilib jismoniy mashqlarni bajarish bilan dam olish mumkin?

Doktor Voyjonim: — Mayli, kel musobaqamizni boshlaylik, ana shunda hammasini o‘zing tushunib olasan.

Bolalar o‘z sinflari bilan jamoalarni tashkil etadilar va har bir jamoa o‘z nomi va shiori yozilgan plakatni ushlab turadi. Har bir jamoada bittadan yetakchi, sinf rahbari va ota-onalardan vakil qatnashishi lozim. Tarbiyachi har bir jamoa nomini aytganida, plakatlarini

ko 'tarib, shiorni jo 'r bo 'lib aytishlari kerak. Shundan so 'ng hakamlar hay 'ati tanishtiriladi.

Doktor Voyjonim: — Salom, bolalar!

Hamma: — Assalom!

Doktor Voyjonim: — Meni tanidingiz-a, bolalar? Men sizlarni Biz yosh sportchilar bilan qutlagani keldim.

Yodingizda bo 'lsin, o 'quvchilar, musobaqa vaqtida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tartib-intizomli bo 'lish, bir-biringizni hurmat qilishingiz muhim. Jani birligizni g 'alaba tomon yetaklaydi! Endi esa ushbu so 'zlar mening o 'r bo 'lib aytishingizni xohlardim.

«Bir-birimizga do 'stona munosabatda bo 'lish va 'da beramiz!»

Bolalar: — Va 'da beramiz!

Doktor Voyjonim: — «G 'alaba bo 'lib o 'yin bellashishga...».

Bolalar: — Va 'da beramiz!

Doktor Voyjonim: — «Qiyinchilikni tabassum bilan yengishga...».


Bolalar: — Va 'da beramiz!

Doktor Voyjonim, Bemas: — Unda spartakiadamizni ochiq deb e 'lon qilamiz! Olg 'a!

Maktab sport maydonida har bir musobaqa shartini o 'tkazish uchun alohida joylangan bo 'lib, jamoalar bir shartni bajarib bo 'lgach, keyingi shartni bajarishga kirishadilar.

«Koptokni yumalat» musobaqasi. Bir o 'quvchi cho 'kkalab koptokni finishdagi gardishgacha yumalatib boradi. Keyin esa gardishni aylanib, koptokni qo 'llarida ushlagancha startga qarab yuguradi va uni keyingi ishtirokchiga beradi.

«Shumtaka» musobaqasi. Bunda o 'quvchilar gardishni aylantirib, undan osha sakraydilar.



MAZMUNA

«Gazetxon» musobaqasi. Jamoalarga chelak, qog‘oz yoki gazeta sahifalari beriladi. Ota-onalar yoki sinf rahbari gazeta sahifalaridan qog‘oz sharchalar yasashlari va guruh ishtirokchilariga uzatishlari talab etiladi. Jamoalar qog‘oz sharchalarini chelakka 1,5—2 metr masofadan otib tushirishlari kerak bo‘ladi (*chelakka tushirilgan shariklar soni hisobga olinadi*).

Dam olish daqiqasi. *Uch musobaqa sharti bajarib bo‘lingach, Doktor Voyjonim va Bilmasvoy boshchiligida bolalar sho‘x musiqa sadolari ostida raqsga tushadilar.*



Doktor Voyjonim: — Bolalar, harab qolmadingizmi?

Bolalar: — Yo‘q!

Bilmasvoy: — Unda raqs sadolari ostida biz bilan birgalikda mana shu harakatlarni bajarib, va siz bilan birga kuylang. Keling, o‘z raqsimizni yaratamiz. «clap» (klep) desak, chapak chalasiz, «hands up» (henz ap) desak, qo‘llaringizni yuqoriga ko‘tarasiz, «hands down» (henz daun) desak, qo‘llaringizni tushirasiz, «jump» (jamp) desak, bir oyoqda sakraysiz. Kelishdikmi?

Bolalar: — Ha!

Bilmasvoy va Doktor Voyjonim:

We are having fun right here!

Look what we do and do it here!

Let's clap...and now let's jump,

Put your hands up...and now put hands down!

Dam olish daqiqasida o'quvchilar salomatlik, sport haqida she'rlar aytishlari, ushbu mavzuda sahna ko'rinishlarini tayyorlashlari mumkin.

«Kim ko'p sakraydi?» musobaqasi. Bunda sinf rahbarlari jamoalaridagi

ishtirokchilardan ikkita-ikkidadan chiqarib, bir daqiqa davomida arg'amchida eng ko'p sakragan o'quvchini aniqlaydi.

«Antiq gul» musobaqasi. Jamoaning har bir ishtirokchisidan bir bitadan shar puflaydi, ota-onalar esa ularni bog'lab, bir necha shardan gul yasashlari kerak bo'ladi.

«Kim chaqqon?» musobaqasi. Jamoa yetakchisi belgilangan joydan turib uzoq masofaga sakraydilar. Musobaqatartlarini kuzatib borayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi yetakchi kelib tushgan masofaga chiziq tortadi. Belgilangan masofani sinf rahbari, so'ng ota-onalardan vakil sakraydi. Natijada eng uzoqqa sakragan jamoa ushbu shartda g'olib bo'ladi.

Doktor Voyjonim: — Bilmaning bugungi tadbirimiz yoqdimi?

Bilmasvoy: — Ha, men sport musobaqasi bunchalik maroqli o'tishi mumkinligini bilmagan ekanman. Endi o'rtoqlarimni ham tez-tez ochiq havoda turli hadda o'ynashga chaqiraman.

Doktor Voyjonim: — Sizningizda tuting, o'quvchilar, sport bilan muntazam shug'ullanib tash kerak. Ana shunda hech qachon kasal bo'lmaysiz. Bugun sizlarning faol ishtirokingizni ko'rib juda quvondim. Ayniqsa, tadbirimizga tashrif buyurgan ota-onalarga alohida minnatdorchilik bildiraman. Chunki sog'lom avlodni tarbiyalashda shaxsiy namuna alohida ahamiyatga ega. Salomat bo'ling! Ta'tilingiz mazmunli o'tsin!



MAZMUN

Spartakiada natijalarini e'lon qilish uchun so'z hakamlar hay'atiga beriladi. «Biz yosh sportchilar»da faol ishtirok etgan jamoalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Ota-onalar va mehmonlar tadbir haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashadi.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: Yozgi sport olimpiadasi mavzusidagi mazmunli rasm asosida hikoya qilish. Maqsad: bolalar yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasmni mustaqil so'zlab bera oladilar, o'z fikrlari bilan o'rtoqlashadi.

Kerakli jihozlar: Yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasm.

Faoliyatni borishi:

Yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasmni taqdim qilish.

Yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasm asosida savol-javob o'tkazish

Mazmunli rasm asosida hikoya qilish.

Qo'shimcha: Yozgi sport olimpiadasi mavzusida sport tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Nutqni grammatik shakllarda to'g'ri qo'llash.





San'at

Mavzu: "Xumo" sport arenasini Maqsadlari "Xumo" sport arenasini rasmlarda tasvirlaydilar. predmetlarni chizadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, qog'oz, rangli qalamlar, bo'yoqlar, salfetkalar, qalnoq.

Faoliyatning borishi:

"Xumo sport arenasini" rasmlarini tomosha qilish.

Namunani kuzatish.

Ijodiy ish.

Rag'batlarni oshirish.

Qo'shimcha: Xumo sport arenasini mavzusida videorolikni tomosha qilish.

Fan va tabiiy

Mavzu: Yosh bolalar uchun sharbatlar tayyorlash

Maqsadlari: mevalarning vitamininga boyligi, mevalar sharbati tayyorlash usulini biladilar, maishiy texnikadan foydalanishga qiziqadilar.

Kerakli jihozlar: mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, sharbat chiqarish apparati. Faoliyatning borishi:

Mevalarni kuzatish.

Mevalarni turiga qarab ajratish.

Mevalarni kesish, urug'larini ajratish.

Mevalardan sharbat tayyorlash.

Xulosalash.

Qo'shimcha qism: chiqarilgan sharbatlardan do'stlarini mehmon qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: hayot havfsizligi qoidalari va gigienaga rioya qilish.

Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Sport maktabi.

Maqsad: bolalar sport turlarining nomini biladilar, sport turlarining ayrim xolatlarini o'z harakatlarida ko'rsatib beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: Sport anjomlari, sport maktablari xaqida slaydlar. Faoliyatning borishi:

Turli sport maktablari haqida slaydlarni ko'rish.

Bolalar tomonidan o'ynash uchun rollarni taqsimlash.

O'yin.

Qo'shimcha qism: O'zbek sportchilari haqida qisqacha ma'lumot berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin jarayonida hayot havfsizlik qoidalariga rioya qilish.

